



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 1 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 1

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 1



ТОШКЕНТ-2025

**Бош мухаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Рахбар Хамидовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош мухаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори,  
профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобожонова Дилором Бобожонова**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари  
университети

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Аширов Адхам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзР ФА Тарих институти

**Агзамова Гулчеҳра Азизовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзР ФА Тарих институти

**Бурдиашвили Майя**  
тарих фанлари доктори,  
Телави давлат университети

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика  
университети

**Аминова Азиза Марковна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Навоий давлат педагогика институти

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори,  
Тошкент ирригация ва кишлок  
хужалигини механизациялаш  
муҳандислари институти  
Миллий тадқиқот университети

**Худайқулов Тулқин Дўстбоевич**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Шаҳрисабз дала педагогика институти

**Гофоров Шоқир Сафарович**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Самарқанд давлат университети

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори, профессор,  
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт  
институти

**Халикова Раҳбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Эшов Боходир Жўраевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Қариш давлат университети

**Маҳкамova Надира Раҳмановна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Тошкент ахборот технологиялари  
университети

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори,  
Телави давлат университети

**Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафасева Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори  
Ўзбекистон Фанлар академияси

**Ерметов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Андижон давлат университети

**Расулов Абдуллажон Нуридинович**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Санкт-Петербург Тарих институти

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Қозогистон давлат тарихи институти

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори, профессор,  
Қозогистон Миллий университети

**Хайдаров Муродилла Махмуталиевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Тожибоев Музаффар Турдибоевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ИИВ Академияси

**Алиева Лале**  
тарих фанлари доктори,  
Озарбайжон давлат университети

**Саипова Камола Давляталиевна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исмаилова Алмаз**  
тарих фанлари доктори,  
Догистон мустақил университети

**Иноятова Диларам Маниглиевна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор  
Ўзбекистон Миллий университети

**Дорошенко Татьяна Ивановна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бабаджанова Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Азербайдон давлат  
иқтисодиёт университети

**Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Гулистон  
давлат педагогика институти

**Нуруллаева Шоира Кушназаровна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Урганч давлат университети

**Толибоева Нодира Одилжоновна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон  
жаҳон тиллари университети  
**Масъул котиб**

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Телави давлат университети

**Джоробекова Айнур Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Қозогистон дипломатия академияси

**Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исаков Бахадир Нигматуллаевич**  
тарих фанлари номзоди,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Холмуродов Дилшод Рашидович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Жиззах давлат  
педагогика университети

**Одилов Аброр Анварович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети  
**Масъул котиб**

**Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Алимардонов Отабек Қудратович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Ўзбекистон Миллий университети

## МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


<b>1. Гулчеҳра Агзамова</b> АШТАРХОНИЙЛАР СУЛОЛАСИ ҲУКМРОНЛИГИ ДАВРИДА АҲОЛИНИНГ ИЖТИМОЙ АҲВОЛИГА ОИД АЙРИМ МАСАЛАЛАР (17-18-ЮЗЙИЛЛИК ЎРТАЛАРИ).....	5
<b>2. Ильдар Азизов</b> РАЗВИТИЕ МЕЖПАРЛАМЕНТСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА ОЛИЙ МАЖЛИСА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН С ПАРЛАМЕНТСКОЙ АССАМБЛЕЕЙ ОБСЕ.....	13
<b>3. Farangis Azimova</b> ЎРТА АСРЛАРДА ДАШТИ ҚИПЧОҚДА ЮЗ БЕРГАН СИЁСИЙ-ЭТНИК ЖАРАЁНЛАРНИНГ АМУДАРЁ – СИРДАРЁ ОРАЛИГИДАГИ ВОҲАЛАРГА ТАЪСИРИ..	19
<b>4. Феруза Амонова</b> XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИДА ҚОРАҚЎЛЧИЛИК ТАРИХИ (БУХОРО АМИРЛИГИ МИСОЛИДА).....	28
<b>5. Ikrom Djurayev</b> MARKAZIY OSIYODA QADIMGI KO‘CHMANCHI VA O‘TROQ AHOLINING O‘ZARO MUNOSABATLARI.....	34
<b>6. Фарходжон Исматуллаев</b> O‘ZBEKISTONNING YEVROPA ITTIFOQI BILAN HAMKORLIK ALOQALARI TARIXSHUNOSLIGINING AYRIM JIHLTLARI.....	41
<b>7. Dilshod Komolov, Shodiyor Do‘smurodov</b> O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PROKURATURA IDORALARINING TASHKIL TOPISHI VA RIVOJLANISHI TARIXI (1991-2000 yillar misolida).....	49
<b>8. Dilshod Komolov, Murodali Xamdamov</b> O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUD TIZIMINING RAQAMLASHTIRILISHI.....	56
<b>9. Pyosbek Mamatkarimov</b> SOSIALISTIK REALIZMNING O‘ZBEK ADABIYOTIGA KIRIB KELISHI TARIXI.....	64
<b>10. Yosin Ortiqov, Ra’no Ergasheva</b> QO‘QON SHAHRI TARIXI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR.....	69
<b>11. Ибрагимжан Ташматов</b> РЕЛИГИОЗНАЯ ТОЛЕРАНТНОСТЬ В УЗБЕКИСТАНЕ (История и современность).....	74
<b>12. Aziza Shotemirova</b> IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA SANOAT KORXONALARIDA O‘ZBEKISTON XOTIN-QIZLARINING O‘RNI (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA).....	80



**Aziza Usarovna Shotemirova,**  
Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi

**IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA SANOAT KORXONALARIDA  
O‘ZBEKISTON XOTIN-QIZLARINING O‘RNI (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA)**

**For citation:** Aziza U. Shotemirova. THE PLACE OF WOMEN OF UZBEKISTAN IN INDUSTRIAL ORGANIZATIONS DURING THE SECOND WORLD WAR (THE EXAMPLE OF THE SAMARKAND REGION). Look to the past. 2025, vol. 8, issue 1, pp.80-84

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.14803499>

**ANNOTATSIYA**

XX asrning ikkinchi choragida Samarqand viloyatida yengil sanoatni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha bir qancha ishlar amalga oshirildi. Natijada, viloyatdagi yengil sanoat korxonalarida mahalliy ishchilar soni oshib bordi. Ushbu maqolada ikkinchi jahon urushi yillarida Samarqand viloyatiga ko‘chirib keltirilgan sanoat korxonlari va unda faoliyat olib borgan ishchi-xodimlar, ayniqsa, xotin-qizlarning faoliyati haqida arxiv materiallari, dissertatsiyalar va manbalar orqali ochib berilishiga harakat qilingan.

**Kalit so‘zlar:** “Krasniy dvigatel”, 93 ta korxonalar, A.Aliqulova, A.Fozilova, O.Shetkina, mahalliy ishchilar, FZM (fabrika-zavod maktabi).

---

**Азиза Усаровна Шотемирова,**  
Научный сотрудник Самаркандского государственного  
университета имени Ш. Рашидова

**МЕСТО ЖЕНЩИН УЗБЕКИСТАНА В ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ  
В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ (НА ПРИМЕРЕ САМАРКАНДСКОЙ  
ОБЛАСТИ)**

**АННОТАЦИЯ**

Во второй четверти XX века в Самаркандской области было проведено несколько работ по созданию легкой промышленности. В результате увеличилось количество местных рабочих на предприятиях легкой промышленности региона. В данной статье предпринята попытка через архивные материалы, диссертации и источники раскрыть деятельность промышленных предприятий, перебазированных в Самаркандскую область в годы Второй мировой войны, и деятельность рабочих, особенно женщин.

**Ключевые слова:** «Красный двигатель», 93 предприятия, А. Алигулова, А. Фозилова, О. Щеткина, местные рабочие, ФЗМ (фабрично-заводская школа).

Aziza U. Shotemirova,  
Researcher at Sh. Rashidov Samarkand State University

**THE PLACE OF WOMEN OF UZBEKISTAN IN INDUSTRIAL ORGANIZATIONS  
DURING THE SECOND WORLD WAR  
(THE EXAMPLE OF THE SAMARKAND REGION)**

**ABSTRACT**

In the second quarter of the 20th century, several works on the establishment of light industry were carried out in the Samarkand region. As a result, the number of local workers in light industrial enterprises in the region increased. In this article, an attempt was made to reveal the activities of industrial enterprises relocated to Samarkand region during the Second World War and the activities of workers, especially women, through archival materials, dissertations and sources.

**Index Terms:** "Krasniy dvigatel", 93 enterprises, A. Aliqulova, A. Fozilova, O. Shetkina, local workers, FZM (factory-factory school).

**Kirish:**

Ikkinchi jahon urushi dunyoning ko'plab mamlakatlariga, jumladan, O'zbekiston iqtisodiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu davrda mamlakatning turli hududlarida sanoat korxonalari qayta tashkil qilinib, front ehtiyojlarini qondirish maqsadida ishlab chiqarish kuchaytirildi. Samarqand viloyati ham bu jarayonlardan chetda qolmadi. Viloyatga ko'chirib keltirilgan sanoat korxonalari va ulardagi xotin-qizlarning faolligi urush davri sanoat taraqqiyotida muhim rol o'ynadi. Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston hududiga, jumladan, Samarqand viloyatiga 93 ta yirik sanoat korxonasi to'liq yoki qisman ko'chirildi. Ushbu korxonalardan 48 tasi mashinasozlik, metallga ishlov berish, kimyo va boshqa og'ir sanoat korxonalari, 45 tasi esa yengil sanoat korxonalari hisoblangan. Ushbu korxonalar nafaqat ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, balki urush frontining ehtiyojlarini qondirish maqsadida ham katta ahamiyatga ega edi. Ko'chirib keltirilgan sanoat korxonalari bilan birgalikda ular uchun zarur bo'lgan malakali ishchilar ham Samarqandga ko'chib keldi. Ushbu ishchilar orasida injenerlar, texnik mutaxassislar va malakali ishchilar bor edi, bu esa ko'chirilgan korxonalarni tez muddat ichida ishga tushirish imkonini berdi.

**Asosiy qism:**

Sobiq Sovet Ittifoqida sanoat va u bilan bog'liq tadbirlarni besh yillik rejalar tarzida amalga oshirish an'anaga aylanib ulgurgan edi. Xususan, Samarqandda o'ninchi besh yillik ichida viloyatda zamonaviy texnika bilan qurollangan 122 ta sanoat korxonasi faoliyat olib borgan. 1942 yilning avgust-sentyabr oylarida "Krasniy dvigatel" zavodi ishchilar va injener-texnik xodimlarining aksariyati bilan birga Samarqandga ko'chirildi va Samarqanddagi "Kolxozchi" zavodi jamoasiga qo'shilib ketdi[1]. Zavod va fabrikalarda yetishmayotgan ishchilar mahalliy millatga mansub yoshlar va ayollar orasidan o'qitilishi kerak edi. Ko'chirib keltirilgan korxonalarining murakkab uskunalari, metal kesish dastgohlarini ishlatish uchun malakali kadrlarning yetishmasligi sababli ishlab chiqarish quvvatlarini oshirishni qiyinlashtirdi[2]. Ushbu zavod g'oyat qisqa muddatda ishga tushirilgan va ko'chirilgandan keying bir oy muddat o'tgach, front uchun mahsulotlar ishlab chiqara boshlagan. Aynan ko'chirilgan zavodlar bilan birgalikda yuqorida ta'kidlanganidek, ishchi, injener-texnik xodimlar ham birga keltirilgan, lekin zavodlar ishlab chiqarish hajmi yuqori bo'lganligi uchun ishchi-xodimlar yetishmagan. Natijada, kadrlar tayyorlash uchun FZM (fabrika-zavod maktabi) lari va zavod kasb-hunar maktablarida amalga oshirildi.

Yirik sanoatda ayollarning ulushi 1940-yilda 50 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1943-yilga kelib zavod va fabrika ishchilarining 69,5 foizini ayollar tashkil etgan. Yirik sanoatning aynan front uchun kerakli mahsulotlarni ishlab chiqargan va natijada ikkinchi jahon urushi yillarida yengil sanoat ishlab chiqarish keskin pasayib ketgan.

Urushdan so'ng urushdan zarar ko'rgan hududlarni tiklash va sanoatni urushdan oldingi holatga keltirish uchun 1946-1950 yillarga mo'ljallangan besh yillik rejaning birinchi yilida ancha tiklandi, ammo ishchilar tanqisligi tufayli mahalliy yoshlar bilan birga xotin-qizlar mehnatidan ham foydalanildi.

O'zbekiston sanoatiga ishchi kadrlarni jalb qilish va tayyorlashning muayyan usullarini yaratish hamda ishlab chiqish juda muhim shartlaridan biri hisoblangan. Sovet hokimiyati yillarida aynan O'zbekistonda ishsizlikni bartaraf qilishga qaratilgan masalalardan biri bo'lgan. Lekin, ishsizlik mavjud bo'lgan sharoitlarda ham sanoatni ishchi kadrlar bilan ta'minlash stixiyali tarzda emas, balki tegishli organlar orqali davlat tomonidan rejali tartibda amalga oshiriladi. Ishsizlikni tugatish sanoat korxonalarini ishchikuchi bilan ta'minlash muammosini mushkullashtirib qo'ygan edi, chunki sanoat sohasida urushdan oldingi besh yilliklarda reja topshiriqlarining bajarilishi katta miqdorda qo'shimcha ishchi kuchini jalb qilardi.

1931-yildan boshlab mavjud bo'lgan mehnat birjasi zamirida kadrlar boshqarmasi tuzilgan edi. 1930-yilda umumiy boshlang'ich ta'limning yo'lga qo'yilishi, 1934-1935-yillarda majburiy yetti yillik ta'limning yo'lga qo'yilishi qizlarni maktabga jalb etishda ma'lum yutuqlarga erishdi. Ammo ko'pgina maktablarda ayol o'qituvchilar yetishmas edi[3]. Kadrlar boshqarmasining asosiy vazifasi ishchilar sinfini tashkiliy ravishda ishchi kuchi bilan ta'minlab turish edi. Ishchilarni uyushgan holda ishga qabul qilish boshlangan edi[4].

40-yillardan boshlab Respublika sanoatiga ishchilarni jalb qilishning navbatdagi davri boshlangan. SSSR Oliy Soveti Prezidnumining 1940-yil 2-oktyabrdagi farmoniga muvofiq, mamlakatda xalq xo'jaligini malakali ishchi kadrlar bilan rejali ravishda to'ldirib borishni ta'min etgan mehnat zahiralari davlat tizimi barpo etilgan edi[5]. Ayni shu davrda sanoat korxonalaridagi ishchilar o'rtasida mahalliy millat vakillari, xususan, o'zbeklar miqdori katta muammolardan biri hisoblangan. 1947-yilda O'zbekistondagi Oliy o'quv yurtlarini turli yo'nalishlarda jami 2536 nafar talaba bitirib chiqqan bo'lsa, ularning 589 nafariga o'zbek millatiga mansub edi[6].

Yana bir muhim masala shundan iborat bo'lganki, biron bir sanoat korxonasi yetarlicha bilim va malakaga ega bo'lgan mahalliy qishloq aholisini ishga qabul qilardi ekan, ularni uy-joy bilan ta'minlagan, nari borsa umumiy yotoqxonadan joy berardi. Lekin boshqa respublikalardan kelgan ishchi yo injener ko'p vaqt o'tmasdan alohida uy bilan ta'minlangan. Shuning uchun ham bunday sharoitda mahalliy kadrlarning o'z qishloqlariga qaytib ketishga majbur bo'lganiga ajablanmasa ham bo'ladi.

Buning isbotini 1961-yildagi yengil sanoat boshqarmasining hisoboti orqali ko'rish mumkin. Unda keltirishicha, o'sha yil yengil sanoat korxonalariga 5497 kishi ishga qabul qilingan va 6172 kishi ishdan bo'shatilgan bo'lib, ulardan 3972 tasi yoki 64,4%i ishdan bo'shshiga uy-joy sharoitining yo'qligi, bolalar bog'chasi va shu kabi bir necha muammolarni sabab qilib ko'rsatgan[7]. Urushdan keyingi yillarda FZM lari (fabrika-zavod maktabi) sanoatni malakali kadrlar bilan ta'minlashning asosiy manbalaridan biri hisoblangan. Agar tayyorlab bergan bo'lsa, 1960-1970 yillarda FZMlarini 17 ming o'quvchi tamomlab chiqqan edi.

Sanoatda mahalliy kadrlar salmog'i katta bo'lmasligining bir qancha sabablari bo'lgan. Ularning asosiylaridan biri respublika hududida sanoat korxonalarini rejalashtirish va joylashtirish siyosati bilan bog'liq bo'lgan. Tadqiqotlarda ko'ramizki, odatda sanoat korxonalari yirik va katta shaharlarda qurilgan. Yana shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, birgina Toshkent sanoatidagi asosiy ishlab chiqarish fondlari boshqa viloyatlardagi fondlarga qaraganda ikki barobar ko'p bo'lgan. Samarqand esa bu davrda sanoat fondlari ishlab chiqarish bo'yicha Toshkent, Farg'onadan keyingi o'rinda turgan. Buni ishlab chiqarish korxonalarida 1956-yildagi holatiga ko'ra ishchilar sonidan ham ko'rish mumkin: Toshkentda 161,7 ming, Farg'onada 38,9 ming, Samarqandda 26,4 ming kishini tashkil etgan.

Butun mamlakatda bo'lgani kabi, Samarqand korxonalarida ham keng quloqch yoygan kommunistik mehnat harakati yetti yillik rejani muvaffaqiyatli bajarish, ishlab chiqarishni tashkillashtirish kishilarning ma'naviy o'sishi uchun g'oyat katta ahamiyatga ega bo'ldi[8].

Tarix fanlari doktori I.Xaydarov o'z tadqiqot Ishida ta'kidlab o'tganidek[9], mahalliy xotin-qizlarni ishlab chiqarishga keng jalb qilish, avvalo, o'zbek mentalitetiga zid bo'lib, ayollarni og'ir ishlarga jalb qilish jismoniy tomondan ham noto'g'ri edi. Avval boshdan sotsializmning bosh maqsadi o'z iqtisodini rivojlantirish bo'lib, shu maqsadda xotin-qizlardan ham ishchi kuchi sifatida foydalanib, ularni ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etdi.

Shuning uchun ham “iqtisodiy mustaqillik-jamiyatda xotin-qizlar teng huquqliligini ta’minlashda asosiy va bosh yutuq”, “iqtisodiy mustaqillikni ta’minlashdagi bosh vazifa-xotin-qizlarni ijtimoiy mehnatga jalb qilishdan iborat”, deb hisoblandi[10]. Misol qilib, Samarqand Tirikotaj fabrikasida kommunistik mehnat brigadasi nomini olish uchun kurashayotgan 1-brigada ishchi xotin-qizlari katta yutuqlarni qo’lga kiritdi. Ayniqsa, A.Aliqulova, A.Fozilova, O.Shetkina[11] va boshqalar tashabbuskorlik ko’rsatib, brigadani avangardlari bo’lishgan. Ma’lumotlarga qaraganda, xattoki, Samarqand Superfosfat zavodining kislorod, suv va elektr sexlarida ham ayol-ishchilar faoliyat yuritgan. Bunga misol qilib, L.Nurmatovani olishimiz mumkin. Barcha ishchilar qatorida L.Nurmatova ham brigadalar bilan birgalikda yuksak natijalarga erishgan.

“Hujum” fabrikasining brigadalari Larisa Sulaymonova va Raisa Kirillovalar ham tashabbuskorlik ko’rsatdilar. Sulaymonova orqada qolayotgan brigadaga o’tib, birinchi oydayoq birinchi sort mahsulot ishlab chiqarishni 47,5 foizdan 77 foizga ko’tarildi. Kirillova brigadasida esa ipak ishlab chiqarish yanada ko’paydi. Bundan tashqari fabrikada Gaganovchilarning ko’rsatgan tashabbuskorligi kommunistik mehnat uchun musobaqaning keng rivojlanishiga yordamlashdi. 1959-yilda bu fabrikada bunday brigadalardan 5 tasi muvaffaqiyatli ish olib borgan, ushbu jamoaga 17 kishi birlashgan. Masalan, Soniya Elatova kabi jamoa a’zolari yillik topshiriqni 109,2 foizga bajargan va eng muhimi shundan iboratki, bu jamoa rejadagi 31,9 foiz o’rniga 79 foiz birinchi sort mahsulot yetishtirib bergan. Aleksandra Popova boshchiligidagi kommunistik mehnat brigadasi topshiriqni 108,5 foizga bajarib, 73,2 foiz birinchi sort mahsulot bergan. Ushbu “Hujum” pillakashlik fabrikasining ilg’or brigadalaridan 7 tasi Gaganovadan iborat bo’lib, orqada qolayotgan brigadalarga o’tadi va bu holat fabrika rivojida yaxshi natija bergan[12].

Orqada qolib kelayotgan hamma uchastkalar ishlab chiqarish topshirig’ini ortig’i bilan bajarib, sifatli mahsulotlar berganlar. Yaxshi natijaga erishgan ilg’or brigadalarning a’zolari “Sotsialistik musobaqa a’lochisi” degan nishonlar bilan ham taqdirlanganlar.

#### **Xulosa:**

Xulosa sifatida aytish mumkinki, XX asrning ikkinchi choragida butun O‘zbekiston bo‘lgani singari, Samarqand viloyatida ham yengil va og‘ir sanoat korxonalarini qurish, qayta jihozlash ishlari amalga oshirildi. Urush yillarida Samarqand viloyatiga ko‘chirib keltirilgan sanoat korxonalarini nafaqat front ehtiyojlarini qondirdi, balki hudud iqtisodiyotining rivojlanishiga ham katta hissa qo‘shdi. Xotin-qizlarning sanoatdagi faoliyati ayniqsa e’tiborga loyiqdir, chunki ular og‘ir sharoitlarda ishlab, sanoat ishlab chiqarishining o‘shishiga salmoqli hissa qo‘shdilar. Urushdan keyingi davrda sanoatni tiklash va rivojlantirishda xotin-qizlarning faolligi davom etdi. Ayollar og‘ir va murakkab sharoitlarda ishlab, o‘z bilim va ko‘nikmalarini oshirib bordilar[13]. Ularning sanoatdagi ishtiroki nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga, balki ijtimoiy tenglik va gender tengligini mustahkamlashga ham xizmat qildi. Biroq sanoat korxonalarida mahalliy millat vakillaridan ko‘ra ko‘proq yevropa millatiga mansub ishchi-xodimlar va xodimlar faoliyat olib borganligi, mahalliy ishchi kadrlarni tayyorlashni dolzarb masalaga aylantirdi. Ushbu muammo mahalliy ishchi kuchining yetishmasligi va ular uchun yaratilgan sharoitlarning yetarli emasligi bilan bog‘liq edi.

Bu tadqiqot kelgusida urush yillarida sanoatdagi xotin-qizlarning faolligini va ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi rolini yanada chuqurroq o‘rganishga hissa qo‘shadi. Xotin-qizlarning sanoatdagi faolligi ularning jamiyatdagi mavqeini oshirishga va iqtisodiy mustaqillikka erishishga katta ta’sir ko‘rsatdi. Shuning uchun urush yillarida va undan keyingi davrda ayollarning sanoatga qo‘shgan hissasi, ularning mehnatga bo‘lgan munosabati, jamiyat hayotidagi o‘rni va bu jarayonda duch kelgan qiyinchiliklarini o‘rganish kelgusida ijtimoiy tarix va gender munosabatlari sohasidagi ilmiy izlanishlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

**Iqtiboslar/Сноски/References:**

1. Алескеров Ю.Н., Нормуродов Х.Н. Самарқанд области: (Справочник). –Т.: Ўзбекистон, 1982. – Б.54 (Aleskerov Yu.N., Normurodov Kh.N. Samarkand region: (Directory). - T.: Uzbekistan, 1982. – P.54).
2. История Узбекской ССР. – Т.: Изд-во «Фан», 1974. – С.407 (History of the Uzbek SSR. – T.: Publishing house “Fan”, 1974. – P.407)
3. Mardieva G.K. The Issue of Education of Uzbek Women in the Early Years of Soviet Rule. // Intersections of Faith and Culture: AMERICAN Journal of Religious and Cultural Studies. Vol. 2, Iss. 1, 2024. – P. 63.
4. O‘zbekiston sanoati strukturasiidagi progressive siljishlar. – Т.: Fan, 1974. –Б.141
5. Хайдаров I.M. O‘zbekiston sanoatining sovet ittifoqi yagona xalq xo‘jaligi kompleksidagi o‘rni (1945-1991 yy). Tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish taqdim etilgan dissertatsiya, 2021.
6. O‘sha yerda.
7. O‘z MA. 2384-fond, 1-ro‘yxat, 937-ish, 13-varoq.
8. Самарқанд тарихи. II том. Тош-1970. – Б.347 (History of Samarkand. Volume II. - Tashkent, 1970. – P. 347)
9. Хайдаров I.M. “O‘zbekiston sanoatining sovet ittifoqi yagona xalq xo‘jaligi kompleksidagi o‘rni (1945-1991 yy) Tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish taqdim etilgan dissertatsiya, 2021. – B.193
10. Худжум - значит наступление. – Т.: 1987. – С.22 10. (Khujum means offensive. – Т.: 1987. – P.22)
11. Самарқанд тарихи. II том. – Тошкент,1970. – Б.347 (History of Samarkand. Volume II. - Tashkent, 1970. – P.347)
12. Самарқанд тарихи. II том. – Тошкент,1970. – Б. 34812. (History of Samarkand. Volume II. - Tashkent, 1970. – P. 348)
13. Джамиля Бакиевна Вафаева. Влияние политической активности граждан на процесс становления гражданского общества в Узбекистане.// Вестник науки и образования. 13-1 (67) 2019. – С. 99-102 (Jamilya Bakievna Vafaeva. The influence of political activity of citizens on the process of formation of civil society in Uzbekistan. // Bulletin of Science and Education. 13-1 (67) 2019. - P. 99-102.).



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 1 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 1

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 1

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000